# S E R T I F I K A T

*Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnalining*
Volume 11 issue 2/2026 sonida nashr qilindi

**Alijonova Gulnozaxon Muhammad qizi**

**“MILLIY TURKISTON” JURNALIDA SOVET TARIXSHUNOSLIGI TANQIDI**

**Mavzusida maqola nashr qildirganligi uchun jurnal ma’muriyati tomonidan taqdim qilindi**

**ISSN: 3060-4818**

**SANA:09.06.2026**

**SALOMOV SH.N.**

Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

# “MILLIY TURKISTON” JURNALIDA SOVET TARIXSHUNOSLIGI TANQIDI

**Alijonova Gulnozaxon Muhammad qizi**
Oriental universiteti “Tarix”
kafedrasi dotsenti, t.f.f.d., Phd
Tel: +998998711192
Email: gulnozaalijonova58@gmail.com

XX asrning birinchi yarmida Turkiston tarixini talqin qilish masalasi siyosiy va mafkuraviy kurashlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Sovet hokimiyati o‘z hukmronligini mustahkamlash maqsadida Turkiston xalqlarining o‘tmishini marksistik-lenincha metodologiya asosida qayta talqin qilishga intildi. Natijada mintaqa tarixidagi ko‘plab voqealar, milliy ozodlik harakatlari va tarixiy shaxslar sinfiy yondashuv asosida baholanib, ayrim hollarda tarixiy haqiqat buzib ko‘rsatildi. Bunday sharoitda xorijdagi turkistonlik muhojir ziyolilar Turkiston tarixini ilmiy asosda yoritish, sovet tarixshunosligidagi biryoqlama qarashlarni tanqid qilish va tarixiy haqiqatni saqlab qolishga alohida e’tibor qaratdilar.

Ana shunday nashrlardan biri bo‘lgan “Milliy Turkiston” jurnali muhojir turkistonliklarning siyosiy, madaniy va tarixiy qarashlarini aks ettirgan muhim matbuot organi hisoblanadi. Jurnal sahifalarida Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, milliy ozodlik harakatlari, Turkiston Muxtoriyati, Basmachilik harakati hamda sovet milliy siyosatining oqibatlariga doir ko‘plab maqolalar e’lon qilinib, ularda sovet tarixshunosligining ayrim xulosalari tanqidiy tahlil etilgan. Mualliflar Turkiston tarixining soxtalashtirilishiga olib kelgan omillarni ochib berishga hamda milliy tarixni asl manbalar asosida yoritishga intilganlar.

Ruslar uzoq vaqtdan beri Turkiston milliy tarixini o‘z foydalari uchun ishlatib, tariximiz sahifalaridagi milliy, shonli va yorqin haqiqatni ham soxta qilish va buzish uchun harakat qilmoqdalar.

Ruslarning bu harakati ayni paytda keskin tus oldi va bizning ilmiy xodimlarimiz, tarixchilarimiz va tarix kitoblarimiz tekshiruvga olindi. Kommunistik partiya tomonidan bu haqda alohida yig‘ilishlar chaqirilmoqda va tarixchilarimizga qattiq choralar ko‘rilmoqda.

Bu yil 1951-yil 25-iyulda Pravda gazetasida “Ideologik ish darajasini oshiraylik” mavzusida bir maqola bosildi. Unda quyidagicha yozilgan: “Olmaota viloyat partiya konferensiyasi rasmiy chaqirildi. Ushbu konferensiyaga kelgan vakillar Qozog‘iston tarixi va adabiyotida millatchilik harakatlari viloyat partiya qo‘mitasi tomonidan yashirilganligini ko‘rsatdilar va viloyat partiya qo‘mitasi hozirda siri ochilgan burjuaziya millatchisi Bekmahanog‘lini ko‘p vaqtdan beri Qozog‘iston davlat universitetida faoliyat yuritayotganligini sezmagan. Konferensiya vakillari Qozog‘iston fanlar akademiyasi prezidenti Satpaj tomonidan berilgan nutqqa qoniqmadilar. Satpaj o‘z xatolarini bo‘yniga olish va o‘zi rahbarlik qilayotgan ilmiy tekshiruv institutining ayrim xodimlari tomonidan olib borilayotgan millatchilik harakatlarini to‘la va oxirigacha ochib berish va ularga siyosiy baho berish o‘rniga, Satpaj Qozog‘iston fanlar akademiyasining ayrim yutuqlarini sanab o‘tish bilan shug‘ullandi” deb bildirildi[1:20].

Ilmiy ma’lumot bergan Satpaj, Pravdaning aytishicha, katta xato qilgan. Demak, Satpajogli NKVDga ya’ni rus bosqinchilariga “millatchilar” deb Turkistonliklarni ko‘rsatmagan.

Konferensiya millatchilarga qarshi qattiq choralar ko‘rib, viloyat partiya qo‘mitasiga Qozog‘iston tarixi va adabiyotini yaratishdagi xatolarni to‘liq ochib berish, millatchilik va kosmopolitizmga qarshi rahim-şafqatsiz kurash olib borish hamda mehnatkashlarni uzluksiz sovet vatanparvarligi va xalqlarning parchalangan emas, birlikda yashash ruhida tarbiyalash vazifasini yukladi deb yuqoridagi rus gazetasi bildiradi.

Umuman olganda, Turkistonda ruslarga qarshi dushmanlik hissi so‘nggi kunlarda yana oshdi. Turkistonning har burchagida “millatchilarga qarshi kurash” degan shiorlar ko‘tarilmoqda va partiya majlislari chaqirilib, millatchilarga qarshi choralar izlanmoqda.

Yuqorida nomi tilga olingan Bekmahanog‘li ustidagi ta’qiblarning boshigacha 1943-yildan oldin boshlangan. Bekmahandan oldin, 1943-yili Abdulholiq tomonidan “Qozog‘iston sovet respublikasining tarixi” nomli tarix kitobi nashr etilgan edi. Bu kitobda “reaksioner xon va sultonlarning feodal tizim ya’ni boshqaruv tartibini haddan tashqari yuqori ko‘targanligi, va sulton hamda xonlarni namunaviy qilib ko‘rsatgani” (Pravda, 26.12.1950) uchun ruslar Abdulholiqni millatchi deb ayblab, bu tarix kitobini qayta ishlash vazifasini Qozog‘iston partiya qo‘mitasi Bekmahanga topshirgan edi[2:98].

Bekmahan vazifasini bajardi va 1947-yili “Qozog‘iston XIX asrning 20-40 yillari ichida” nomli tarix kitobini nashr etdi. Bu kitob chiqar chiqmasida ham Abdulhalqda bo‘lgan xatolar topildi va darhol unga qarshi “millatchi, o‘tgan asrdagi xonlarni, Qosim va Kenesorilarni namunaviy qilib ko‘rsatgan, milliy ruhda yozilgan va marksizm-leninizm nuqtai nazaridan tekshirish o‘rniga ularning qilgan ishlarini maqtovchi” deb hujum boshlangan edi.

Bekmahan xon va sultonlarning Rossiyaga qarshi kurashini va Kenesarining Rossiyadan Qozog‘istonni ajratib olish harakatlarini Marksizm-Leninizm nazariyasi bilan tanqid qilmasdan va tekshirmasdan, ularning harakatini himoya qilgan deb, Pravdaning (26.12.1950) da’vosidan oldin K. Sharifogli ham Bekmahan tomonidan qilinayotgan “kamchiliklar” va “xatolar”ning bir qismini aniqlagan. Uning fikricha, “Bekmahan Qozog‘iston jamiyatidagi sinfiy kurashga ul qadar baho bermagan va Kenesarini namunaviy qilib ko‘rsatgan”. (Voprosi Istorii, No. 4, 1949).

Shu Pravdada Sayinboy, Aydarova va Yakuninlarning yozishicha, Bekmahan tomonidan berilgan bunday “noto‘g‘ri” tadqiqot-tekshiruv ta’siri boshqa bir qancha tarixiy asarlarda, masalan I.J.Umar og‘li tomonidan 1949-yili Qozog‘iston sovet respublikasining tarixini qayta ishlashda ham ko‘rilgan ekan.

Umarog‘li ham Pravdaning yozishicha, “Kenesari tomonidan qo‘yilgan siyosiy talablarni himoya qilib, Kenesari harakati taraqqiyotga qaratilgan bir harakat deb ko‘rsatgan, - deb da’vo qilinib, ayni gazeta shunday yozadi: “Haqiqatan esa, Kenesarining siyosiy talablari Qozog‘istonni yana xonlar feodal hukmronligi ostiga olib kelish va Qozog‘istonni Rossiyadan ajratib olish edi”. So‘ziga davom qilib, tarixchilar tomonidan berilgan ta’sirlar ustida to‘xtalib, “tarixchilar tomonidan Kenesari Qosimhanga noto‘g‘ri baho berilgan va shuningdek tarixchilarimiz avvalgidek noto‘g‘ri va adashgan yo‘lga tushganlar”, - deb yozadi.

Ruslar esa hech to‘xtamasdan quyidagi fikrlarni amalga oshirishga harakat qilmoqda: “Bekmahanning xatolarini ko‘rsatish kerak va Kenesariga Marksizm-Leninizm ilmiy-tarixi nazariyasi bilan baho berilishi zarur”.

Qozog‘istonning ruslar tomonidan bosib olinishi haqidagi bahsda, ruslar: “Qozog‘iston ruslar tomonidan bosib olinmadi, aksincha Qozog‘iston ruslarga qo‘shildi va bu Qozog‘lar uchun baxt va saodat bo‘ldi”, - deb aytadi.

Ular shunday davom etadi: “Qozog‘istonning Rossiyaga qo‘shilishi XVIII asrning birinchi choragida boshlangan va XIX asrning 60-yillariga qadar davom etgan. Bu hodisa katta qiymatga ega taraqqiyot edi, shuningdek, Qozog‘iston tarixini boshqa yo‘lga olib chiqdi va Qozog‘istonni Rossiya bilan madaniy va iqtisodiy aloqalar o‘rnatish imkonini berdi”.

Ruslar va ularning homiylari bu so‘zlar bilan rus mustamlakachiligi siyosatini himoya qilmoqda va bu siyosatga qarshi bo‘lgan Turkiston milliy ozodlik harakatlariga yuqoridagi mazmunni berishmoqda.

Agar haqiqatan ham, ruslarning da’vosiga ko‘ra, Turkistonning bir qismi bo‘lgan Qozog‘iston Rossiyaga o‘z ixtiyori bilan qo‘shilgan bo‘lsa va buning baxt ekanini tan olgan bo‘lsalar, unda nega Qozog‘ urug‘lari 18-asrdan 19-asrning 60-yillariga qadar o‘z yerlarini bu baxt va saodat keltiruvchi ruslardan himoya qilish uchun kurashgan?

Pravda o‘zi ham yuqorida aytilganidek, Qozog‘istonning Rossiyaga qo‘shilishi XVIII asr boshlaridan XIX asrning 60-yillarigacha davom etganini tasdiqlaydi. Demak, bu uzoq yillarga cho‘zilgan, 150 yil davom etgan qonli kurashlar Qozog‘istonning Rossiyaga qo‘shilganini emas, balki rus bosqinchilariga qarshi kurashganligini ko‘rsatadi[3:66].

Shu davrda ruslarga qarshi kurashgan Kenesari va boshqa xonlarning milliy harakatiga to‘la va to‘g‘ri baho bergan va Kenesarini imperializmga qarshi kurashgan shaxs va namuna deb ko‘rsatgan Bekmahan bugun “xalq dushmani”, “millatchi” va “haqiqatni, tarixni buzuvchi” sifatida hisoblanib, jazoga tortilmoqda.

Pravda Kenesarining milliy qo‘zg‘oloniga quyidagi rus mustamlakachilar fikrini beradi: “1882-yili Qozog‘ xonlarining hokimligi tugatiladi va shu bilan birga Qozog‘ feodallarining boshqa huquqlari ham qisqartiriladi. Bundan keyin Kenesari va boshqa millatchilar Qozog‘istonning Rossiyaga qo‘shilishiga qarshi kurash boshlashdi. “Bu kurash natijasida ular yana xonlarning feodal huquqini tiklash yo‘lini tanlashdi”.

Bu kurashning boshlanishida Sarihan Qosimxon turib, uning vafotidan keyin 1837-yili uning ukasi Sultan Kenesari rahbarlikka o‘tdi. Qozog‘ mehnatkashlari bu harakatga qarshi bo‘lganlar va Qozog‘istonning Rossiya bilan qo‘shilishi tarafdori edilar - deb ruslar Kenesarining milliy harakatini butunlay shaxsiy manfaat harakatiga aylantirmoqchi bo‘lib, quyidagi tushuntirishni beradilar: “Abiljahonning nabirasi Sultan Kenesari va unga yaqin bo‘lgan feodallar, hammaning noroziligidan foydalanib, ularni kurashga jalb qilishga qaror qildilar. Bu kurashning ma’nosi faqatgina sultan va feodallarning sinfiy manfaatiga qaratilgan bo‘lib, ular o‘z daromadlarini va feodal yuqori sinf hokimiyatini qayta tiklamoqchi edilar. Kenesari o‘zi xon bo‘lishni istardi va shu bilan Qozog‘istonni Abiljahon davridagi, XVIII asrdagi tartibga qaytarmoqchi edi. Endi Kenesari qanday norozilikdan foydalanib butun Qozog‘ urug‘larini rus bosqinchilariga qarshi kurashga chaqirgan ekan? Kenesari ruslarning bosqinchiligiga qarshi va ruslardan norozilangan butun xalqimizni ruslarga qarshi kurashga chaqirdi. Xalqimiz Kenesari bilan birga dushmanga qarshi kurashdi”. Ruslar esa bu mustaqillik harakatiga boshqa ma’no berish niyatida quyidagi bahoni berish uchun: “Boshlang‘ichda Kenesariga qo‘shilgan bir to‘da Qozog‘ mehnatkashlari Kenesaridan foyda o‘rniga aksincha zarar kelishini tezda bilib, undan ketishdi... Demak, Kenesari tomonidan boshlangan qo‘zg‘olon reaksioner feodal, millati Qozog‘ aq so‘jaklarining harakati bo‘lib, ular xon hokimiyatining yo‘qolishi va huquqlarining cheklanishidan norozilik bildirgan sultanlarning harakatidir.” - deb yuqoridagi tanqidlarni keltirib talab qilmoqdalar.

Haqiqatda esa bu ruslarga qarshi qo‘zg‘olon va mudofaa muharribi shaxsiy bir kishining ishi va uning foydasi uchun bo‘lmay, butun xalqning milliy qo‘zg‘oloni edi va o‘sha paytda ham sinf bo‘lmaganidek, sinfiy kurash va undan tug‘ilgan norozilik ham bo‘lmagan edi.

Agar Pravdaning aytishi to‘g‘ri bo‘lsa, SSSR Fanlar akademiyasining tarix institutida tahsil olgan Bekmahan va Fanlar akademiyasining Qozog‘ filialidagi tarix institutidagi materiallarni tekshirgan, shuningdek Qozog‘iston Respublikasining tarix arxividagi materiallarni ko‘rib chiqqan Abdulholiq, Umarog‘li va Muhammadog‘li Kenesari haqida qo‘llarida haqiqiy hujjatlarga tayanib yuqoridagi kitoblarini yozmas edilar.

Bu yozuvchilar haqiqatni yozdilar, Pravda esa bu haqiqatga boshqa soxta ma’no va yakun berish niyatida oqni qora deb ko‘rsatmoq va tanitmoqchi Kenesari ruslarning bosqinchiligiga qarshi harakatida Turkistonning boshqa barcha xonlarini ham rusga qarshi kurashga chaqirdi. Shu bilan Turkiston birlashgan frontini yuzaga keltirmoqchi bo‘ldi[5:65].

Haqiqatan ham Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonlari tomonidan Kenesari oldiga elchilar kelishdi. Kenesari bu elchilarga: “Ruslar dalada qurilganlarini buzib tashlashmoqda, shu ruslarning qurilishlarini yo‘q qilish uchun xonlaringiz askarlar tayyorlasinlar va mening tomonimdan ham to‘liq yordam ko‘rsatilmoqda (Bu haqdagi material Muhammadog‘li tomonidan Qozog‘iston tarixi arxividan olingan).

Hatto Xiva xonligi tomonidan kelgan vakil Tahirho‘ja Qirg‘izlarning rus hukumatiga qarshi harakatda bo‘lishlarini, lekin yuzaki rus do‘sti sifatida ko‘rinib turishini tavsiya qilganini Pravda o‘zi ham tasdiqladi. Demak, bu mustaqillik harakati faqat ruslarga qarshi qo‘yilgan bo‘lib, aslida milliy harakat edi. Rus gazetasi Pravda bu masalani inkor eta olmay, uni boshqa tomonga burmoqchi bo‘lib,

Turkiston xalqining birlashuvini “Qozog‘ xalqi uchun xavf” deb ta’riflab, o‘sha paytdagi qor rus bosqinchilik siyosatini ham himoya qilmoqda.

Pravda shunday deydi: “Kenesari Qozog‘istonning Rossiyaga qo‘shilishiga qarshi uzluksiz kurashdi va kafirlarga, ya’ni ruslarga qarshi qo‘zg‘oloniga o‘z tarafdoshlarini chaqirdi va O‘rta Osiyo xonlari bilan ham aloqalarini bog‘ladi. Bular ruslarga ham, Qozog‘larga ham dushman ko‘zi bilan qarashardi”.

Pravda so‘zining davomida: “O‘rta Osiyo xonlarining maqsadi Kenesari orqali o‘z ta’sirini Qozog‘istonda yanada kuchaytirish va Qozog‘istonning Rossiyaga qo‘shilishini to‘xtatish edi”. Shu bilan birga, Bekmahanga qarshi ham hujum boshlanib “Bekmahan Kenesari kurashini O‘rta Osiyo xonlariga ta’riflashining siyosiy ma’nosini aniq ko‘rsatmaydi va Kenesarining Rossiyaga qarshi kurashiga O‘rta Osiyo xonlari qiziqish bilan qaraganliklarini Bekmahan yashirmoqda”, deb uni tanqid qilinmoqda.

Tabiiyki, ruslar Turkiston birligini istashmaydi, chunki Turkiston birligi rus mustamlakachiligi uchun katta xavfdir. Shuning uchun bu birlikdan qo‘rqib, ruslar Turkistonni bir nechta bo‘laklarga bo‘ldi. Shu bo‘laklarni saqlab qolish uchun tarixdagi haqiqatlarni ham soxtalashtirmoqdalar.

Shuning uchun Turkiston xonlarining bir-biriga yaqinligi va birgalikda Turkistonni rus mustamlakasidan himoya qilish yo‘llarini qidirganlarini “yomon niyatdagi harakat” deb ko‘rsatmoqchi bo‘lib, “O‘rta Osiyo xonlari Qozoq xonligini o‘z ta’siriga olishni istadi. Tabiiyki bu Qozoqlar uchun xavf edi va Kenesarining ruslarga qarshi kurashi Turkistonning boshqa xonlari tomonidan ham to‘g‘ri topildi va Qozog‘istonning Rossiyaga qo‘shilishini to‘xtatmoqchi bo‘lganlari Qozoqlar uchun qanchalik xavfli harakat ekanligini Bekmahan so‘zlamasdan yashirmoqda”.

Bekmahan Qosimxon xonlardan va avlodlarini taraqqiyparvar va xalq boshliqlari deb ko‘rsatadi. Bekmahan o‘z kitobida feodal va xonlik harakatini milliy ozodlik manfaatiga qaratilgan deb ko‘rsatishi Marksizm-Leninizm ilmiy nuqtayi nazariga qarshi qo‘yilgandir.

Chunki jamiyat tarixi va tarix sinfiy kurash nuqtai nazaridan qaraladi. Rus bosqinchilik harakatini qanday yo‘llar va do‘qalar bilan yashirishga intilsalar ham va urug‘larni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yishga harakat qilsalar ham, marksizm-leninizmdan so‘zlasa ham, ruslar o‘z qora niyatini ochiq ko‘rsatib qo‘ymoqda.

Tarixchilarimiz ustida bo‘layotgan hujumlar va hozir chaqirilgan partiya konferensiyalari rus hokimiyatini saqlash uchun choralar ko‘rilmoqda. Shuning uchun Pravdaning talabi bo‘yicha, tariximizda va hayotimizda ko‘rilmagan. Ruslar va ularning tarixiy tahlillari Kenesarining harakatini sinfiy kurash nuqtai nazaridan ko‘rib, uni milliy ozodlik harakati sifatida emas, balki feodal sinf manfaatlari uchun olib borilgan shaxsiy kurash deb talqin qilmoqda. Ular Kenesarining Rossiyaga qarshi kurashi ruslarga qarshi umumiy milliy kurash emas, aksincha, Turkiston mehnatkashlari bilan oqsuyaklari (feodallar) o‘rtasidagi sinfiy kurash deb ko‘rsatishga harakat qilmoqda.

Shu ma’noda, Kenesarining harakati shaxsiy va sinfiy manfaatlarga xizmat qilgan, uning ruslarga qarshi kurashi esa keng miqyosdagi Turkiston xalqining mustaqillik harakati sifatida emas, balki sinfiy manfaatlar uchun olib borilgan harakat sifatida talqin qilinadi.

Bundan tashqari, ruslar va ularning tarafdorlari Turkiston xonliklari o‘rtasidagi hamkorlik va shimoliy Turkistonni ruslardan ozod qilish uchun tuzilgan birlik frontlarini Qozog‘iston urug‘lari uchun noto‘g‘ri va xavfli deb baholashmoqda. Bu orqali ular Turkiston xalqlarining birlashuvi va milliy ozodlik harakatlarini siyosiy jihatdan zaiflashtirishga urinishmoqda.

Ruslar o‘zlarining bu siyosiy rejasini ochiq ko‘rsatmoqda: “Bekmahan haqiqatda o‘sha davrdagi feodal Qozog‘iston jamiyatidagi sinfiy farqlarni yashirib, Qozog‘istonning Rossiyaga qo‘shilishini mustamlaka va ezilish deb baholagan”.
Shu bilan birga, rus mustamlakachiligi tarafdorlari, ayniqsa “Pravda” gazetasi, Kenesarining harakatini mustamlaka siyosatiga qarshi emas, balki sinfiy ziddiyat sifatida talqin qilib, mustamlaka siyosatini himoya qilmoqda.

Amalda esa Qozog‘iston Rossiyaga o‘z ixtiyori bilan qo‘shilmadi, balki qurolli kuch yordamida bosib olindi. Hozirda butun Turkiston rus mustamlakasining nazorati ostida. Ruslar Qozog‘iston mehnatkashlari mustamlakaga qarshi bo‘lganligini tan olishadi va Kenesarining kurashi bu qo‘shilishni to‘xtatish uchun bo‘lgan, ammo bu harakat Turkiston xalqining umumiy mustaqillik harakati ekanligini rad etadilar.

Bekmahan esa, o‘z navbatida, Kenesarining harakatini mustamlakachilikka qarshi kurash deb himoya qiladi va bu harakatning tarixdagi taraqqiyotdagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Ruslar esa: “Kenesari hech qanday islohot qilmagan, aksincha, o‘rta asr feodal tizimini saqlab qolishga intilgan”, deb da’vo qilmoqda. Tarixchi Bekmahan esa, o‘zida mavjud hujjatlarga asoslanib, bu da’volarni rad etadi va “Pravda”ning yolg‘on va asoslanmagan so‘zlari orqali Turkiston tarixini buzishga urinishlarini tanqid qiladi. Ruslarning tarixiy siyosati Kenesarini “inqilobchi va taraqqiyotchi emas, balki reaksioner harakatning boshlig‘i” deb ta’riflab, Qozog‘iston xalqining taraqqiyotini to‘smoqchi bo‘lgan, xonlik hukmronligini eski tartibga qaytarishga intilgan va Qozog‘istonni Rossiyadan ajratib olish rejasini amalga oshirishda ayblashmoqda.

Aslida, Kenesari Turkistonni shimoldan rus bosqinchilaridan ozod qilish uchun kurashgan va bu kurashda butun Turkiston xalqlari birlashgan edi. Ruslar uchun esa, kim ruslarga qarshi chiqsa, u “taraqqiyparvar emas”, kim ruslardan ozod bo‘lishni istasa, u “inqilobchi emas”, kim rus mustamlakasiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarsa, u “reaksioner” va kim o‘z tarixiy merosini hurmat qilsa, u “xalq dushmani” hisoblanadi. Biroq, haqiqatda Kenesari haqiqiy xalq sardori, taraqqiyparvar va mustaqillik tarafdori edi.

Ruslar boshqa xalqlar ustidan o‘z hukmronliklarini saqlab qolish uchun har qanday choralarni qo‘llashdan tortinmaydilar. Shu sababli ham, yaqinda Almati viloyati partiya konferensiyasi chaqirilib, tarix va adabiyotdagi “xatolar” va “buzg‘unchiliklar” yuzasidan millatchilarga qarshi qat’iy kurash olib borish vazifasi yuklatildi.

Ruslarning bunday harakatlari nafaqat ularning o‘z muhojir va tarafdorlariga, balki rusni “do‘st” deb bilgan va unga ishonadigan barcha xalqlar va shaxslar uchun ogohlik darsi bo‘lishi kerak. Har qanday davlat shaklida bo‘lsin, rus davlatining mustamlakachilik siyosati davom etmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. KARA A., “Ermukhan Bekmakhanov Ve Sovyet Döneminde Kazak Tarihi Araştırmalarında İdeolojik Baskı Ve Kısıtlamalar”, *Sovyet Tarih Yazımı Ve Kazakistan Tarihinin Meseleleri (İlk Kazak Tarihçisi Ermukhan Bekmakhanov’un Hayatı ve Çalışmalarına Yeni Bakış)*, (Editörler: Abdulvahap Kara, Zeynep Yaman), İstanbul, (2016): 11–25.
2. V.Qayumxon. “Turkiston tarixiga ruslarning hujumi” // “Milliy Turkiston” jurnali. 1951-yil avgust-sentabr. № 74. - B. 8-14.
3. KURAT A. N., *Rusya Tarihi, Başlangıcından 1917’ye Kadar*, Ankara: Türk Tarih Kurumu, 1987.
4. KURAT A. N., *IV–XVII Yüzyıllarda Karadeniz Kuzeyindeki Türk Kavimleri ve Devletleri*, Ankara: Murat Kitabevi, 1992.
5. ÖZDEMİR E., “Sovyet Dönemi Kazakistan’da Komünist Partisi’nin Tarih Yazımı Ve Tarih Eğitimine Etkisi”, *Sovyet Tarih Yazımı Ve Kazakistan Tarihinin Meseleleri (İlk Kazak Tarihçisi Ermukhan Bekmakhanov’un Hayatı ve Çalışmalarına Yeni Bakış)*, (Editörler: Abdulvahap Kara, Zeynep Yaman), İstanbul, (2016): 141–155.